

“BOBURNOMA” DA QO’LLANILGAN ARABCHA LEKSIK SINONIMLAR XUSUSIYATI

Azizova Feruza Obidjon qizi

Farg’ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada “Boburnoma” da qo’llanilgan arabcha sinonimlar, ularning uslubiy xususiyatlari, Boburning sinonim qo’llash mahorati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: sinonim, sinonimlik, ma’nodosh, leksik sinonimiya, shakl va mazmun, uslubiy vosita.

Sinonim so’zlar tilning imkoniyat doirasi kengligini, lug’aviy jihatdan boyligini ko’rsatuvchi vositalardan biri hisoblanadi. Shaklan har xil bo’lib bir tushunchaning turli darajada ifodalovchi bunday so’zlar matniy bo’yoqdorlikni ta’minlovchi muhim vositalardir. O’zbek tilida sinonimlar yetarlicha tadqiq qilingan. Azim Hojiyev, Yormat Tojiyevlarning bu boradagi ishlari diqqatga sazovor¹. Akademik A.Hojiyev “Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashturuvchi ma’nosi bir xil (umumiy) bo’lgan, qo’shimcha ma’no nozikligi emotsiyal bo’yog’i, qo’llanilishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o’zaro farqlanadigan so’zlardir” deb ta’kidlaydi². Sinonimiya shakl va mazmun nomutanosibligini vujudga keltiruchi omillardan biri sanaladi va u tilning fonemadan yirik barcha sath birliklari uchun taalluqli bo’ladi. Sinonimiya qamrovida lug’aviy birliklarning ma’nodoshligi markaziy masala hisoblanadi. Tilning boshqa hodisalarida kuzatilgani kabi, lug’aviy birliklar sinonimiyasining o’ziga xos sistemaga aylanishida boshqa tillardan o’zlashgan lisoniy birliklarning ham sezilarli hissasi bor. Bu xususiyat o’zbek adabiy tili lug’at tarkibining o’zlashgan qatlamida begonalik belgilari so’nib, o’zbek tilining o’z so’zlari kabi singib ketgan. Masalan, kitob, kasb, maktab, muhabbat, dunyo, olam, vafo, sir, adabiyot, tabiat, hovli va hokazo lug’aviy birliklarning boshqa til

birliklari ekanligi hech kimni shubhaga solmaydi. O’zbek tilining o’zlashgan so’zlari bilan o’z so’zlari sinonimiyasida arabcha o’zlashma so’zlar bilan o’zbekcha so’zlarning sinonimiyalashuvi miqdoran salmoqli o’rin egallaydi. Ba’zi o’rinlarda sinonimiya qatoridagi komponentlar bir necha xil bo’ladi, ular o’zaro stilistik va semantik xususiyatlari bilan farqlanadi. Biz tadqiqotimizning ushbu faslida “Boburnoma” da qo’llanilgan arab tilidan o’zlashgan leksik sinonimlar xususida so’z yuritmoqchimiz. “Boburnoma” tilidagi kishini lol qoldiruvchi sinonimik boylik eng avvalo o’zbek tilining, ayniqsa, Bobur ijod qilgan eski o’zbek tilining o’zida barchasini qo’llash uchun zaruriyat tug’ilmagan, Zero, ”Boburnoma” da tilning sinonimik boyligini ko’z-ko’z etish bosh maqsad qilib qo’yilgan emas. Bobur o’z maqsadlarini ro’yobga chiqarish uchun bu boylikdan vosita sifatida foydalangan.

Asarda sinonimianing barcha turlari bo'yicha misollar juda ko'p uchraydi. Ushbu tadqiqotimizda esa faqat arab tilidan o’zlashgan leksik sinonimlar haqida fikr yuritamiz. Chunki . “Tildagi mavqeい, nufuziga ko’ra eng balandi va vazifasiga ko’ra eng rang-barangi leksik sinonimiya hisoblanadi”¹. “Boburnoma” asarida arab tilidan o’zlashgan sinonim so’zlar salmoqli o’rin egallaydi. Quyida ularning tahlilini ko’rib chiqamiz.

Avlod – so’zi ishtirokidagi sinonimik uya. Bir davr kishilarining naslini birlashtiruvchi ma’nosini ifodalovchi avlod so’zi **nasl** so’zi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi. Asarda har ikkala so’zni ham uchratamiz:

1. “Yana bir Boboquli Bobo Alibek edi. Shayx Ali Bahodurning **naslidin** edi”(71).
2. “Balki bu taaddi va tashaddud Xojaning **avlodig’**a siroyat qildi”(79).

Adad-miqdor. Bu so’zlar ot turkumiga mansub bo’lib, miqdor ifodalash uchun ishlataligan:

1. “Yana hind eli **adadni** ham xo’b tayin qilubturlar” (359).
2. “Ot va tevadin va xayma va xirgohdin, balki jami sipohilik yarog’idin mirzog’a va mirzo bila bo’lg’onlarg’ a ul **miqdor** xizmat va odamigarlik qildim”(101). Adad so’zi hozirgi paytda qaytadan iste’molga kirib, “tiraj” degan ma’noda ishlatala boshladi. Miqdor so’zi esa hozirgi tilimizda faol. Bundan

tashqari asarda miqdor ma’nosini bildiruvchi forsiy “shumor” va turkiycha “sanoq” so’zlari sinonim sifatida qo’llanilgan.

Ajab/Ajib-G’alat-Tavre. Bu so’zlarning barchasi arabiylashtirilganda hisoblanadi. Bu so’zlarga ma’nodosh bo’lgan “qiziq” turkiycha so’z ham mavjud, lekin bu so’zni “Boburnoma” asarida uchratmaymiz. Bu so’zlarimiz nisbiy sinonimlar hisoblanadi. Chunki ular o’zaro barcha ma’nolari bilan mutlaq sinonimiya hosil qilmaydi. “G’alat” so’zining “xato”, “xatolik”, “yanglish” kabi ma’nolari bor. Hozirgi tilimizda ajib so’zi poetik so’z shaklida, “g’alat” kalimasi “g’alati” shaklida ishlataladi:

1. “To’qquz tarnov suv kirar. Bu **ajab**turkim, bir yerdan ham chiqmas” (60).
2. “She’rni ham **tavre** aytur edi. “Odiliy”taxallus qilur edi” (126).
3. “Bir kuni o’rdu ichida **g’alat** g’avg’oe tushti” (233)

Ayb-Qusur-Nuqson-Noqis-Mayib. Ayb so’zining arab tilidagi bosh ma’nosini “tahqirlash” hisoblanadi. O’zbek tiliga “kamchilik”, “nuqson” ma’nosini bilan o’zlashgan, keyinchalik “qonun-qoidalarga xilof, uyatli ish, xatti-harakat” ma’nosini anglatish boshlagan:

- 1.“Hindustonning bir ulug’ **aybi** budurkim, oqar suvi yo’qtur” (45).
- 2.“Qo’rada yo olotga **qusure** bor ekandur” (373).

Mutasarrif Musallit-Qobiz. Ma’nosini –hukm yurgizuvchi. Aslida bu so’zlar “bo’lmoq” yordamchi fe’li bilan kelib, fe’l tarzida ko’proq qo’llanilgan. Bu so’zlarni “Boburnoma” dan olingan misollar orqali ko’rib chiqamiz:

1. “Shohruxiyani firib bila olib, necha mahal **mutasarrif** bo’lub edi” (65).
2. “Firuzshohdin so’ng Junpur mamlakatiga **musallit** bo’lubturlar” (340).
3. ”Men Ibrohimni bosqon fursat Qanuj va andin narigi jami viloyatlarga **qobiz** bo’lub, Qanujdin bir-ikki ko’ch beri kelib, o’lturub edilar” (364).

Sabr-Toqat-Tahammul. Shu so’zlarga ma’nodosh bo’lgan “bardosh” so’zi ham mavjud. Bu so’z “Boburnoma” asarida umuman uchramaydi. Bu otlar yordamchi fe’llar bilan birga kelib, fe’l sifatida ham ishlataladi:

1. “Har ikkalasi g’amim bila **sabrimdek**, Borg’on sari bu ortadur, ul kam bo’ladur” (403). Sabr so’zi asarda faqat bir o’rinda qo’llanilgan xolos.

2. “Har kim davlatxohdur, mundin so’ng mundoq so’zlarni aytmasun, har kim **toqat** keltura olmay ketarg’a yuz qo’ysa, borg’onidin qaytmasun” (365).

3. “Bataksis, bizning ko’zumizning o’trusida bizning otimizni minib, bizning to’nimizni kiyib, bizning qo’ymizni yeb yurugaylar, munga xud kim **tahammul** qilg’ay” (122).

Zulm-Istibdod-Tashaddud-Azob. Zulm – istibdod so’zlari o’zga tomonidan bo’ladigan ezish ma’nolari bilan bir-biriga yaqindir. Istibdod so’zi kitobiy uslubga xos bo’lib, asosan u hokim sinf, tabaqa yoki davlat tomonidan bo’ladigan tazyiqqa nisbatan qo’llaniladi:

1. “Uzun Hasan va Sulton Ahmad Tanbal viloyat eliga bisyor **zulmlar** o’tkarib, yomon maosh qilib edilar” (119).

2. “Ne uchunkim, Tanbalni orqalanib manga va mening davlatxohlarimg’ a jafo va **azoblar** qilur edi” (135).

Xulosa qilib aytish mumkinki, yozuvchining til mahorati uning leksik ma’nodoshlikdan foydalanishda ham kuzatiladi. Ma’nodoshlar tasvir tiniqligi, badiiy barkamollik, asosiy g’oyaga urg’u berishlikni ta’minlash maqsadida qo’llanganligi yaqqol ko’zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boburnoma.O’z FA. nashriyoti. 1960.
2. Ҳожиев А. Ўзбек тилида синонимларнинг изоҳли луғати. Тошкент: 1974; Тожиев Ё. Ўзбек тилида аффиксиал синонимия. Тошкент: 1992.
3. Olimov M. “Boburnoma”da qo’llangan sinonimlar lug‘ati.-Toshkent: Fan, 2004.-110 b.
4. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining etimologik lug‘ati (arab so’zlari va ular bilan hosilalar). Toshkent: Universitet, 2003. -599 b.
5. Языкоzнание. Большой енциклопедический словарь. 2-е (репринтное) издание “Лингвистического энциклопедического словаря” 1990 г. М.: “Большая Российская энциклопедия”, 1998. С. 446.